

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand Davlat Arxitektura Qurilish Universitet talabalari orasida barqaror muhit yaratish va ularga barqarorlik tamoyillarini singdirish maqsadida universitet "Barqarorlik qo'mitasi" tomonidan tashkil etilgan

**"BARQARORLIK KURSI"** seminar trening sentabr oyi

## BAYONNOMASI

**Universitet:** Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

**Sana:** 17- sentabr 2025 yil

**Joy:** kichik faollar zali

**Tadbir turi:** Seminar-trening

**Mavzu:** Barqaror rivojlanish asoslari va SDG maqsadlari

**Tashkilotchi:** QS va xalqaro reytinglar bo'limi

**Ishtirokchilar:** Talabalar

**Ishtirokchilar soni:** 112 nafar

**Qatnashdilar:** Strategik rivojlantirish bo'yicha birinchi prorektor, strategic rejalashtirish koordinatorligi ofis mutaxassisi, xalqaro reytinglar va akkreditatsiyalar koordinatorligi ofisi mutaxassislari, talabalar, tyutorlar va professor-o'qituvchilar

## KUN TARTIBI

1. Barqaror rivojlanish tushunchasi va uning ahamiyati
2. BMTning 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG)
3. Universitetda barqaror muhit va "Green Campus" tashabbusi
4. Talabalarning ekologik madaniyati va ijtimoiy faolligi

## ESHITILDI

Seminar davomida barqaror rivojlanish tushunchasi, uning ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlari haqida ma'ruza qilindi. Shuningdek, BMT tomonidan belgilangan 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) hamda ularning universitet faoliyatidagi o'rni tushuntirildi. Barqaror rivojlanish — hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirish bilan birga kelajak avlodlar imkoniyatlariga zarar yetkazmasdan taraqqiyotga erishish tamoyiliga asoslanadi. U iqtisodiy o'sish, ijtimoiy farovonlik va ekologik muvozanatni birgalikda ta'minlashni nazarda tutadi. Barqaror rivojlanish modeli resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va jamiyatda tenglikni ta'minlashga qaratilgan.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi global darajada Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u dunyo mamlakatlarini umumiy maqsadlar asosida birlashtiradi. Ushbu yondashuv iqtisodiy rivojlanish bilan bir qatorda kambag'allikni kamaytirish, ta'lim va sog'liqni saqlashni yaxshilash, hamda ekologik muammolarni hal qilishni o'z ichiga oladi. Barqaror rivojlanish har bir davlat, tashkilot va jamiyatning faol ishtirokini talab qiladi.



SDG — Barqaror rivojlanish maqsadlari (Sustainable Development Goals) 17 ta global maqsaddan iborat bo‘lib, ular 2030 yilgacha erishilishi rejalashtirilgan. Ushbu maqsadlar qashshoqlikka barham berish, ochlikni kamaytirish, sifatli ta‘lim, sog‘lom hayot, gender tengligi, toza suv va sanitariya, arzon va toza energiya, munosib ish o‘rinlari, innovatsiya va infratuzilmani rivojlantirish kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi.

Tadbirda “Green Campus” dasturi, energiya va resurslarni tejash, chiqindilarni kamaytirish, ekologik madaniyatni oshirish masalalari muhokama qilindi. Talabalarning barqaror rivojlanishdagi roli va ijtimoiy faolligi haqida fikr almashildi. “Green Campus” (Yashil kampus) dasturi — ta‘lim muassasalarida ekologik barqarorlikni ta‘minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va sog‘lom muhit yaratishga qaratilgan tashabbusdir.

Mazkur dastur talaba va xodimlarning ekologik madaniyatini oshirishga ham xizmat qiladi. Seminarlar, treninglar, ko‘chat ekish aksiyalari, chiqindilarni saralash va qayta ishlash loyihalari orqali jamoaning faol ishtiroki ta‘minlanadi. “Green Campus” tashabbuslari barqaror rivojlanish tamoyillarini amaliyotga joriy etib, universitetning xalqaro reytinglar va ekologik ko‘rsatkichlar bo‘yicha nufuzini oshirishga yordam beradi.

### QAROR QILINDI

1. Talabalar o‘rtasida barqaror rivojlanish bo‘yicha targ‘ibot ishlari davom ettirilsin.
2. “Green Campus” loyihasi doirasida ekologik tadbirlar tashkil etilsin.
3. Energiya va resurslarni tejash bo‘yicha targ‘ibot ishlari kuchaytirilsin.
4. Seminar materiallari va foto-hisobot QS Sustainability platformasi uchun arxivlansin.



Mas‘ul: Mamadaliyeva Farangiz Latifovna

Imzo: